

QIT'ALARNI BOG'LAGAN KO'PRIK: BUYUK IPAK YO'LI TARIXIGA BIR NAZAR

Zafarova Gulzoda Dilshod qizi

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti, tarix yo'nalishi

E-mail: gulzodazafarova4@Gmail.com

Ilmiy rahbar: Norkuziyev Dadaxon Raxmonjonovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22161158>

Annotatsiya: Ushbu matnda Buyuk ipak yo'lining tarixiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, uning xalqlar o'rtasidagi tinchlik hamda hamkorlik ko'prigi sifatidagi roli tahlil qilingan. "Chin" va "Sharqiy Turkiston" tushunchalarining kelib chiqishi, so'g'diylar hamda arablarning ushbu savdo yo'lini nazorat qilishdagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, keyingi davrlarda to'xtab qolgan aloqalarni tiklash borasida YUNESKO va O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilgan amaliy sa'y-harakatlar hamda xalqaro ekspeditsiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Buyuk ipak yo'li, Chin, Sharqiy Turkiston, so'g'diylar, YUNESKO, "Ipak yo'li – muloqot yo'li", hamkorlik, O'zbekiston, ekspeditsiya.

Annotation. This text analyzes the historical, economic, and cultural significance of the Silk Road, emphasizing its role as a bridge for peace and cooperation among nations. It explores the origin of the terms "Chin" and "East Turkestan" as well as the control exerted over this trade route by Sogdians and Arabs. Furthermore, it highlights the practical efforts made by UNESCO and the Republic of Uzbekistan to revive the Silk Road after its stagnation, including major international expeditions.

Keywords: Silk Road, Chin, East Turkestan, Sogdians, UNESCO, "Silk Road – Road of Dialogue", cooperation, Uzbekistan, expedition.

Аннотация: В данном тексте анализируется историческое, экономическое и культурное значение Великого шелкового пути, а также его роль как моста мира и сотрудничества между народами. Освещаются происхождение понятий «Чин» и «Восточный Туркестан», роль согдийцев и арабов в контроле над этим торговым путем. Кроме того, приводятся сведения о практических усилиях ЮНЕСКО и Республики Узбекистан по возрождению Шелкового пути после периода застоя, включая проведение международных экспедиций.

Ключевые слова. Великий шелковый путь, Чин, Восточный Туркестан, согдийцы, ЮНЕСКО, «Шелковый путь – путь диалога», сотрудничество, Узбекистан, экспедиция.

Buyuk ipak yo'li dunyoning turli sivilizatsiya o'choqlarini o'zaro yaqinlashtirdi. Bu davr qadimiy migratsioon jarayonlar orqali madaniyatlar almashuvi, qorishuvi kabilardan farqli ravishda funksional jihatdan barqaror, davomiy, o'zaro ehtiyojlarni hisobga oluvchi xalqaro tovar almashuviga, bu orqali madaniy axborot maydonining paydo bo'lishiga yo'l ochib berdi. Ayni shu sivilizatsiyalararo muloqot yo'li sifatida Buyuk ipak yo'li va u bilan bog'liq Markaziy Osiyo xalqlarining xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlari tarixining chuqur ildizlarini o'rganish mintaqa xalqlarining hozirgi globallashuv jarayonlaridagi jahon bilan muloqotlari uchun ham tarixiy tajriba sifatida muqim va o'rganilishi dolzarbdir.

Antropologik va yozma manbalarga ko'ra miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda O'rta Osiyoda eng qadimgi elatlarning shakllanishi va etnik hududlarning ajralishi yakuniga yetgan davr

hisoblanadi. Ushbu masalani o'rganish juda murakkab muammo bo'lsada, shubhasiz aytib o'tish kerakki, miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Eron ahmoniylari sulolasining O'rta Osiyoga yurishlari aynan shu davrga to'g'ri kelgani bu borada ahamiyatlidir. Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda III-VI asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Shang ongali o'tgan ipak yo'lining nazorati so'g'diylarning qo'lida bo'lgan. VIII asrning o'rtalariga kelib ipak yo'lining g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tdi. Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo xalqlarning iqtisodiy, savdo, madaniy sohalarda bog'labgina qolmasdan, balki ayni paytda bu yo'l dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, qo'shnichilik, do'stlik rishtalarini bog'lagan yo'l ham bo'lgan. Zero, Buyuk ipak yo'li sivilizatsiya tarixida ilk sharq mamlakatlarini yaqinlashtirgan, birlashtirgan qit'alararo ko'priki bo'lib, insoniyat hayotida juda katta ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan nodir va noyob ulkan karvon yo'li bo'lgan.

Qadimgi Xitoy ko'hna tarixga ega. "Buyuk ipak yo'li" nomi shu mamlakat tarixidagi iqtisodiy ehtiyoj taqozosi bilan yuzaga kelgan. Musulmon xalqlarida Xitoyning Chin deb atash odati bor. Lekin Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, Chin Xitoyda turkiy xalqlar yashagan joyning nomi bo'lgan. Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan "Chin" atamasi Sharqiy Turkistonni anglatadi. Sharqiy Turkiston Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lidagi muhim hudud bo'lganligi tufayli doim yirik davlatlar va jahongirlarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. [5,8.]

Miloddan avvalgi 138-yilda Xitoy imperatori U-Di Chjan Tsyanni O'rta Osiyoga elchi sifatida jo'natdi, elchining vazifasi Xitoyning xunnlarga qarshi kurashida ittifoqchi topish edi. Miloddan avvalgi II-I asrlarga kelib, Chjan Tsyann yurgan yo'llar bo'ylab Xitoyning O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'lagan karvon yo'li paydo bo'ladi. Keyinchalik "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan mashhur bo'lgan yo'lning umumiy uzunligi 12 000 kmni tashkil etgan. O'z davrida ulkan ahamiyat kasb etgan Buyuk ipak yo'li Xitoyning Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron va Bobil (Mesopotamiya) orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan. O'rta Osiyo orqali Xitoydan G'arbiga o'tgan savdo karvon yo'llari doimo sadlar nazoratida bo'lgan. Sug'd savdogarlari savdo yo'lida ustunlikni saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvdan to Yenisey sohillariga qadar hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shansi viloyatida, Dunxuan kabi karvon yo'li yoqalarida joylashgan qator shaharlarda o'z karvonsaroylari, qishloqlarini barpo etganlar. [2,160]

Ipak yo'li orqali Xitoydan O'rta Osiyo va G'arb mamlakatlariga, asosan, ipak va shoyi matolar, ilk o'rta asrlardan boshlab qog'oz olib chiqilgan bo'lsa, G'arb davlatlaridan Xitoyga shisha, jun matolar, gilam, palos, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho toshlar: qizil yoqut, feruza, serdolik, shuningdek, dorivorlar, tulpor otlar olib borilgan. Savdo yo'li orqali Xitoyning jez ko'zgulari va o'rtasi kvadrat teshikli tangalari Farg'ona vodiysi va Choch (Toshkent) viloyatida keng tarqalgan. Shunday qilib, Ipak yo'li O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Dengiz yo'llari rivojlanishidan oldin savdogarlar Xitoy va Sharqqa quruqlik orqali bir necha oy davom etadigan uzoq safarlarga chiqqanlar. Bu yo'llar Buyuk Ipak yo'li yoki Oltin yo'l deb atalgan. Ingliz yozuvchisi J. E. Fleker hatto "Samarqandga oltin sayohat" nomli asar yozgan. Bu yo'llar bo'yidagi shaharlar boyib borgan. Keyinchalik Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lovchi asosiy yo'lga aylangan. Dastlab u Sharq Meridian yo'li deb atalgan. "Buyuk Ipak yo'li" nomi esa 1870-yilda nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofer tomonidan ilmiy tadqiqotlar natijasida

berilgan. Yo'l qadimgi Xitoyning Sian shahridan boshlanib, Lanchjou va Dunxuan orqali ikki tarmoqqa bo'lingan. Janubiy yo'nalish Taklamakon cho'li orqali Xo'tan, Yorkent, Pomir va Badaxshondan o'tib Balxga yetgan. U yerdan esa yo'l Termiz, Darband, Nautaka va Samarqand tomon davom etgan. [3,12-14]

1991-yilda AQSh, Angliya, Germaniya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Xitoy, Polsha, Shveytsariya, Koreya, Mo'g'uliston, Afg'oniston, Pokiston, Isroil, Filippin kabi mamlakatlardan 135 a'zodan iborat xalqaro ekspeditsiya karvoni - YuNESKOning "Buyuk Ipak yo'li" ekspeditsiyasi yo'l davomida yodgorliklarni o'rganish, konferensiyalar o'tkazish maqsadida sayohat qildi. YuNESKO bilan tarixiy merosni tiklash bo'yicha maxsus uzoq muddatli dastur ishlab chiqildi. Bu ushbu tadqiqotning yaxshi namunalaridan biri bo'ldi va shu tariqa biz tarixiy merosimizni kelajak avlodlarimiz uchun saqlab qolishimiz.[6]

Yangi davlat tashkil topgan dastlabki kunlardan boshlab mamlakat rahbariyati Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashga katta e'tibor qarata boshladi. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati bilan birgalikda Buyuk Ipak yo'lini amaliy tiklashda (aloqa yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish, turizmni rivojlantirish va boshqalar loyihalari) faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Markaziy Osiyo xalqlari hayotining tarixiy arteriyasi – Buyuk Ipak yo'li... qayta tiklanishi kerak",–deya baralla aytadi. [1, 6.]

Ipak yo'lidagi aloqalar ba'zi bir sabablarga ko'ra keyingi 100 yil ichida deyarli to'xtab qoldi. Faqatgina bir necha sharq mamlakatlari tashabbusi bilan xalqaro hamjamiyat YUNESKO tomonidan Buyuk ipak yo'li va uni tiklash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Ya'ni 1987-yili bo'lib o'tgan YUNESKOning 24-sessiyasi 1988–1997 yillarga mo'ljallangan "Ipak yo'li – muloqot yo'li" yirik loyihasini amalga oshirishga qaror qabul qildi. Bunga ko'ra, loyiha savdo yo'li bo'yi xalqlarini yigirma birinchi asr ostonasida bir-birlari bilan hamkorlik rishtalarini o'rnatishi, tinchlik va barqarorlik uchun xizmat qilishi kerak edi. Shu maqsadda bu ulkan loyiha bo'yicha uchta xalqaro ekspeditsiya amalga oshirildi.[4, 55]:

- 1.Dengiz yo'llari bo'ylab ekspeditsiya.
- 2.Sahro yo'llari bilan ekspeditsiya.
- 3.Cho'l yo'llarida uyushtirilgan ekspeditsiya



Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan shaharlar. [7]

Xulosa o'rnida, Buyuk ipak yo'lining amaliy ahamiyati oshgan sari olimlar va mutaxassislar mazkur yo'lining o'tmishiga, bugungi holatiga va kelajagiga oid barcha masalalarga qayta-qayta murojaat qilmoqdalar. Xitoy bilan G'arb o'rtasidagi ipak yo'li va iqtisodiy, madaniy aloqalar tarixida saklar, xunlar, sug'diylar, eftaliylar, turklar va uyg'urlarning qo'shgan hissasi nihoyatda katta bo'lgan. Saklar Yevrosiyo shimoliy savdo yo'lini yaylovlararo o'tgan ipak yo'lini ilk bor ochgan xalq hisoblansa, sug'diylar miloddan avvalgi V asrlardan boshlab to milodiy X asrgacha bo'lgan 1500 yillik davr davomida ipak yo'li orqali amalga oshirilgan aloqalarni rivojlantirishda g'oyat ulkan hissa qo'shgan. Buyuk ipak yo'li nafaqat savdo, balki diplomatiya va madaniy munosabatlar yo'lidir. Turli davrlarda mazkur yo'l orqali xitoy elchilari va budda rohiblari dastlab Turkiston shaharlariga kelgan, so'ngra boshqa mamlakatlarga borgna. G'arb elchilari va missionerlari Turkiston mintaqasi orqali Xitoyga, Koreya va Yaponiyaga yo'l olgan. VIII asrdan boshlab ushbu yo'ldan islom targ'ibotchilari Sharqqa qarab yurgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 6.
2. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 160
3. Mamarahimova B.I. Buyuk ipak yo'li – sivilizatsiyalararo muloqot yo'li: 5220200–Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) ta'lim yo'nalishi bakalavr III bosqich talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010. – B. 12–14.
4. Матбобоев Б. Х., Шамсутдинов Р. Т., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон: Мерос, 1994. 76– Б. 55.
5. Хўжаев Аблат. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 8.
6. <http://www.livescience.com>
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Main_Page